

“ZiyoNET” tarmog‘idan foydalanish va foydalanishni ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-191-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 10 iyuldagi “ZiyoNET” ta’lim axborot tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 198-sonli qarorlariga muvofiq umumta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari, axborot-kutubxona muassasalari, muzeylar va boshqa ta’lim, ilmiy va madaniy-ma’rifiy muassasalar “O‘zbektelekom” Aktsiyadorlik Kompaniyasi (AK) tomonidan “ZiyoNET” tarmog‘i orqali internet tarmog‘iga ulangan.

2017 yildan boshlab “O‘zbektelekom” AK tomonidan jismoniy shaxslar uchun ham arzonlashrtirilgan va yoshlarni turli xildagi axborot xurujlaridan himoyalaydigan “ZiyoNET” tariflari ishlab chiqildi.


“ZiyoNET” tariflari yuridik va jismoniy shaxslar uchun ikkita yo‘nalishda xizmat ko‘rsatadi:

1. Simli: xDSL telefon aloqa liniyasi hamda FTTx optik tolali kabellar orqali.
2. Simsiz: CDMA-450 hamda GSM texnologiyalari orqali.


Yuridik shaxslarni “ZiyoNET” tarmog‘iga ulash tartibi:



Yuridik shaxslarning dislokatsiyasini shakllantirish tartibi:



Shartnomalarni tuzish tartibi:



Yuridik shaxslar uchun “ZiyoNET” tarmog‘idan foydalanish uchun belgilangan tariflar:

T/r	Xizmatlar nomi	“ZiyoNET” tarmog‘iga ulanish tezligi	“ZiyoNET” tarmog‘idan foydalanish uchun belgilangan limit	Internet tarmog‘iga ulanish tezligi	Internet tarmog‘idan foydalanish uchun belgilangan limit (oyiga)	Narxi (so‘m)
xDSL texnologiyasi bo‘yicha ulanish (simli)						
1.	ZiyoNET-1	512 Kbit/s.	Limitsiz	128 Kbit/s.	700 MB	19 061
2.	ZiyoNET -2	1 Mbit/s.	Limitsiz	256 Kbit/s.	1 000 MB	21 057
3.	ZiyoNET -3	1 Mbit/s.	Limitsiz	512 Kbit/s.	1 200 MB	26 647
FTTx texnologiyasi bo‘yicha ulanish (simli)						
1.	ZiyoNET fast -1	1 Mbit/s.	Limitsiz	512 Kbit/s.	2 800 MB	39 424
2.	ZiyoNET fast -2	1 Mbit/s.	Limitsiz	1 Mbit/s.	5 000 MB	96 918
3.	ZiyoNET fast -3	2 Mbit/s.	Limitsiz	2 Mbit/s.	Limitsiz	1 441 101
CDMA-450 texnologiyasi bo‘yicha ulanish (simsiz)						
1.	ZiyoNET CDMA-1	128 Kbit/s.	Limitsiz	128 Kbit/s.	500 MB	24 328
2.	ZiyoNET CDMA-2	128 Kbit/s.	Limitsiz	128 Kbit/s.	1 000 MB	48 656

Izoh:

1. Bir oylik trafikka kiritilgan limit tugashi bilan “ZiyoNET” tarmog‘iga Internet tarmog‘ining ulanishi uzib qo‘yilmaydi.
2. “ZiyoNET” tarif rejalariga ulanganda faqat “ZiyoNET” axborot-resurslar tarmog‘ining (<http://sites.ziynet.uz/>) yagona axborot manbaalariga kirishga ruxsat beriladi. Qolgan tashqi Internet va TAS-IX saytlariga kirish cheklanadi.
3. CDMA-450 texnologiyasi viloyatlarning chekka hududlarida joylashgan va xDSL va FTTx orqali ulanish uchun texnik imkoniyatlarga ega bo‘lmagan yuridik tashkilotlar uchun mo‘ljallangan.

Jismoniy shaxslar uchun “ZiyoNET” tarmog‘idan foydalanish uchun belgilangan tariflar:

T/r	Xizmatlar nomi	Abonentlik to‘lovi (so‘m)	“ZiyoNET” tarmog‘idan foydalanish uchun belgilangan limit	Internet tarmog‘iga ulanish tezligi	Internet tarmog‘idan foydalanish uchun belgilangan limit (oyiga)	Limitdan tashqari 1 MB narxi (so‘m)
xDSL va FTTx texnologiyalari bo‘yicha ulanish (simli)						
1.	ZiyoNET Active	18 000	Limitsiz	2 Mbit/s.	5 000 MB	10
T/r	Xizmatlar nomi	Xizmatni faollashtirish narxi (so‘m)	Xizmat abonent to‘lovi (kunlik, so‘m)	“ZiyoNET” tarmog‘idan foydalanishda 1 MB trafik uchun narx (so‘m)	USSD orqali boshqarish	
GSM (2G/3G/4G) texnologiyasi bo‘yicha ulanish (simsiz)						
1.	ZiyoNET xizmati	421,1035	210,5175	8,4207	*111*1*12*1# - faollashtirish *111*1*12*2# - o‘chirish *100*2# - trafik qoldig‘i	

Izoh:

- xDSL va FTTx texnologiyalari orqali ulangan abonentlarda bir oylik trafikka kiritilgan limit tugashi bilan “ZiyoNET” tarmog‘iga Internet tarmog‘ining ulanishi uzib qo‘yilmaydi.
- “ZiyoNET” tarif rejalariga ulanganda faqat “ZiyoNET” axborot-resurslar tarmog‘ining (<http://sites.ziynet.uz/>) yagona axborot manbaalariga kirishga ruxsat beriladi. Qolgan tashqi Internet va TAS-IX saytlariga kirish cheklanadi.
- Jismoniy shaxslar xDSL va FTTx texnologiyalari orqali “ZiyoNET” tarif rejalariga ulanishi uchun “O‘zbektelekom” AKning hududiy yoki tuman (shahar) bo‘limlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilishlari kerak bo‘ladi.
- GSM texnologiyasi bo‘yicha xizmatni faollashtirish va o‘chirish “Shaxsiy kabinet” orqali, uchun “O‘zbektelekom” AKning hududiy va tuman (shahar) bo‘limlarida yoki Call-markazga qo‘ng‘iroq orqali amalga oshirish mumkin.